

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT TARBIYAVIY ISH TA'LIM  
YO'NALISHI IV-KURS TALABASI

ZIOLA ABDUVAHOB QIZIнинг

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi ” fanidan  
KURS ISHI

**Tarbiyada udumlar va an'analardan foydalanish**

Ilmiy rahbar:

Xayitova D.

Termiz – 2014

# **TARBIYADA UDUMLAR VA AN'ANALARDAN FOYDALANISH**

## **Reja:**

### **Kirish.**

- 1. Tarbiya jarayonida udumlar va an'analarning mazmuni**
- 2. Oila tarbiyasida urf-odatlar, an'analardan foydalanish**
- 3. O'zbek xalqining mehmondo'stligi, turmush kechirish tartib - qoidalarining tabiyada aks etishi**

### **Xulosa**

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

## KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin tarixiy haqiqat va adolatni tiklash, inson omilini vujudga keltirish davr talabiga aylandi. Keyingi yillarda mamlakatimizda xalq ta'limi sohasida qabul qilinayotgan bir qator qaror va farmonlarida barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga katta e'tibor berilib, ming yillar davomida yaratilgan xalqimiz qoni va joniga singan ma'naviy durdonalarga yangicha nazar bilan boshlandi. Natijada milliy qadriyatlarimizning qadri ko'tarildi va e'tiborga olinishi tasdig'ini topdi. Bir so'z bilan aytganda zo'rlik va ongsizlik, oqibatida berkitilgan ezgulik buloqlarining ko'zi ochildi. Ta'lim-tarbiya ishlariga xalqimizning eng ilg'or, hayotda o'zini oqlagan qadriyatlaridan maktab, oila va mehnat jamoalarida qo'llash, ulardan foydalanish kabi vazifalar hamisha dolzarb bo'lib kelmokda. Shu kunlarda ayniqsa, vatanparvarlik, millatlararo do'stlik, ekologik tarbiyaga oid qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayonida tatbiq etish hozirgi avlod kishilarini xalq pedagogikasining asosi bo'lgan xalqning pandnomalari asosida tarbiyalashni keng qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda necha millat, necha xalq bo'lsa hammasining o'ziga xos turmush tarzi, o'tmish hayoti va kelajagi bilan chambarchas bog'liq an'analar mavjuddir.

O'zbek xalqining urf-odatları, turmush tarzi, oilaviy marosimlari, ta'lim-tarbiya, madaniyat an'analari moziy uzoq asrlariga borib taqaladi. Barg ildizdan quvvat oladi deganlaridek, hozirgi va kelajak avlod o'z ajdodlarining milliy marosimini chuqur bilishi ular ma'naviyatning mag'zi to'qligi omilidir. Bu hamisha hamma avlod tomonidan e'tirof etilgan. Haqiqatda Kaykovus (1020-1099)ning «Qobusnoma» sidan tortib al-Xorazmiy (783-850), Abu Nosir al-Forobiy (873-950), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037)larning nazmiy va nasriy asarlarida Yusuf Xos Hojib (XI asr) ning «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»), Ahmad Yugnakiy (XIII asr)ning «Hibbatul haqoyiq» («Haqiqat sovg'alari») kabi jahonga mashhur asarlaridan Alisher Navoiy( 1441-1501 )ning o'lmas she'riyatida, Qori Niyoziyning «Hayot maktabi», Abdulla Avloniyning( 1879-1934) «Guliston yoxud turkiy axloq» asarlarida Sharq xalqlari, xususan, (1878-1934) o'zbek xalqiga xos ibratli tomonlar ochib

berilganki, ular qalami orqali xalqimizga xos bo'lgan ota-onani hurmatlash, insoniylik, mehr-shafqat, mehmondo'stlik, ma'rifatga chanqoqlik, onani (ayolni) ulug'lash, farzandga mehrlil va fidoyi bo'lishlik kabi fazilatlarni dunyoga tanitgan bo'lsa ajab emas. Yurtimizning inqilobdan keyingi dastlabki yillaridayoq ta'lim-tarbiya, ma'rifat va madaniyat borasidagi xalq tarbiyashunosligining ibratli tomonlari yuksak baholangan edi.

Jahon pedagogikasi namoyondalari bolaga muhabbat, bolaga diqqat-e'tiborni boshqa millat vakillari Sharq xalqlaridan o'rganish kerakligini e'tirof etganlar. Bu o'z navbatida Sharq xalqlarining asriy an'alarini chuqur o'rganish vazifasini keltirib chiqaradi. Masalaga bo'lgan qiziqish ilgari ma'lum, masalan, inqilobdan oldin ham Turkiston xalqlarining urf-odatlar, turmush tarzi, oilaviy marosimlari va shunga o'xshash ko'plab an'alar bir qancha boshqa millat etnograflarining ishlarida aks etgan.

Umuminsoniy, oilaviy urf-odatlar va an'alarini chuqur o'rganish, ularni tahlil qilish, turkumlashtirish, ularning paydo bo'lish yo'llari, tadrijiy taraqqiyotini bilish, aniqlash, ilmiy asoslangan g'oyalarni ilgari surish va shular asosida an'alaridan foydalanish yo'llarini tavsiya etishni hayot talab etmoqda. Bularning hammasi kelajak kishisini tarbiyalashda amaliy yordam berishi muqarrar.

Qadim zamonlardan, hatto o'zbek xalqining yozuvi bo'lmagan paytlarida yosh avlodni tarbiyalash asosan oilada amalga oshirilgan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga oladigan bo'lsak bizning mazkur kurs ishimiz ana shunday dolzarb muammolardan birini yoritishga bag'ishlangan.

## **1. Tarbiya jarayonida udumlar va an'analarning mazmuni.**

Tarbiya\_– muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda obhektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat – yo falokat masalasidir»<sup>1</sup>. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xussiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

**Tavallud, Beshik, Alla udumlari.** Tavallud topgan bolaning qulog'iga otabobolarimiz avval mulla chaqirib azon aytirganlar. Azon aytilganda bolaning qulog'i ochilgan. ismi ilk bor chaqaloqning o'z qulog'iga singdirilgan. So'ng ularning chillasi-kichik chilla va katta chilla o'tkaziladi. qirq kunlik katta chillasi chiqqandan so'ng beshikka belash marosimi o'tkaziladi. Tavallud topgan bosh farzand bhlsa, bozordan beshik sotib olinadi. Beshik ajdodlarimiz kashfiyotlari orasida aloxida o'rin tutadi. Beshik yasash aloxida sanoat darajasiga ko'tarilgan. Bola bor joyda alla aytilishi tabiiy. Onalar qadimdan o'z bolalari tepasida kecha-kunduz alla aytib kelishgan. Alla insonda, ong qatlamlarida bir umr mungli, xazin, nurli qo'shiq bo'lib saqlanib qoladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va

---

<sup>1</sup>Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, O'qituvchi, 1992.

pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Zero, tarbiya ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi asosida kechadi.

Tarbiya jarayonida o'quvchining ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulhiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi ehtibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Talaba-yoshlar ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirishda dastlab ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish orqali mazkur qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar tarkibiga kiruvchi milliy urf-odatlar, an'ana va udumlar, bayram va marosimlar avlodlar kamolotida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Xalqimiz asrlar davomida shu qadriyatlarga sodiq qolgan, ulardan farzandlar tarbiyasida foydalana olgan.

Istiqlol tantanasi bilan bugungi kunda barkamol avlodni asrlar osha sayqal topgan milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz ruhida tarbiyalash, madaniy merosimiz, ma'naviy boyligimizni har tomonlama o'rganib, ta'lim-tarbiya sohasida qo'llashga keng imkoniyatlar yaratildi. Yurtboshimiz I.A.Karimov: "Biz quradigan jamiyat O'zbekiston xalqining munosib turmushini, xuquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishini, insonning ma'naviy axloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak",<sup>2</sup> - deb ta'kidlaydi. Urf-odatlar, islom dini bilan bog'liq rasm-rusumlar, xalqona udumlar, marosimlar, an'analar xalq ijtimoiy hayoti, orzu-umidlari va xalqona ideallarini aks

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T. O'zbekiston, 1994, 113-b.

ettiradi, insonni iymon-e'tiqodda butun, ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-ruhiy tarbiyada komil bo'lishga undaydi.

Xalqona qadriyatlar va urf-odatlarimiz islomiy qadriyatlar bilan hamohang. Ularda vatanparvarlik, halollik, elni e'zozlash, adolat, mehnatsevarlik, kamtarlik, mardlik, hushyorlik, saxiylik, mehmondo'stlik, vafodorlik, sabr-qanoat kabi insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Adovat, kibr-havo, hasad, fitna-fasod, dilozorlik, xudbinlik, tekinxo'rlik, ilmsizlik, nodonlik, farosatsizlik kabi illatlar qoralanadi.

Har bir urf-odat, udum, an'analar yuqorida ulug'langan fazilatlarni yosh avlod tarbiyasiga singdirish, qoralangan illatlardan yiroqlashtirish yoki forig' qilish kabi o'z maqsad-vazifasiga, o'z yo'nalishiga ega. Masalan, odamiylik, do'st-birodarlik, bir-biriga ixtiyoriy yordam, ahillik va o'zaro hamkorlikning yorqin namunasi bo'lgan hashar hozirgi kungacha yetib kelgan go'zal odatlarimizdan biridir. Hashar o'zbeklarda jamoat yoki shaxs ishiga ixtiyoriy yordam berish, ko'pchilikning bir maqsadda, bir yoqadan bosh chiqarib, tezkorlik bilan bajarilishi zarur bo'lgan ishlarni bajarishda qo'llangan. Bu haqida yurtboshimiz shunday deydilar: "Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'naviy hayotimizning uzviy qismiga aylangan hashar odati istiqlool davrida yangicha ma'no-mazmunga ega bo'lib, umummilliy an'ana tusini olgani barchamizni mamnun etadi. Har yili Navro'z va Mustaqillik bayramlari arafasida o'tkaziladigan umumxalq hasharlari buning tasdig'idir. ...Bu esa, hech shubhasiz, jamiyat tafakkurining yangilanishiga kuchli ta'sir qilmoqda."<sup>3</sup>

<sup>4</sup> Demak, aytish joizki, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy taraqqiyotida qadriyatlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu bois ham yosh

---

<sup>3</sup>Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-96-bet.

<sup>4</sup>Quronov M. Biz anglayotgan haqiqat. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-100-bet.

avlod tarbiyasida xalq an'analari, urf-odatlari, udumlari, marosimlarining mohiyatini keng tushuntirishimiz darkor.

**Demak, tarbiyada milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'ana va udumlarimizning tub mohiyatini o'rganish, o'tmishni unutmashlik, bugunning qadriga yetishlik va kelajakka umid ruhida olib boriladi.**

**Qadriyat** – “tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalardir”.<sup>5</sup>

**An'ana** – kishilar ongida, hayotida o'z o'rnini topgan ijtimoiy hodisa bo'lib, avloddan avlodga o'tadigan, takrorlanadigan tartib va qoidalaridir.

**Urf-odat** – kishilarning kundalikdagi turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ko'nikma va xulq-atvor qoidalaridir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, mehmonlarni alohida hurmat bilan izzatlash va h.k.

**Marosim** – ko'pincha an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan hayotiy tadbirlardir.

An'ananing tarkibiy bo'lagi odat, odatning muhim bir qismi marosim bo'lib, odat kundalik hayotda uchrashi mumkin bo'lsa, marosim inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi. Yosh mutaxassislarning o'qishni bitirib, ishga joylashishi odat bo'lsa, bunga bag'ishlab tashkil qilingan an'anaviy tadbirlar marosimga aylanadi. Barkamol shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, udumlar va an'analarning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish samarali natijalarga olib keladi. Masalan, xalqimizda salomlashish va hol-ahvol so'rashish har bir kishining aqli, odobi, zakovati, madaniylik darajasini ham ko'rsatadi. Salomlashish tarbiyasi borasida qator hadislar, o'gitlar, pandnomalar mavjud. Masalan, ot mingan kishining piyodaga, ozchilikning ko'pchilikka, tashqaridan kelgan kishi ichkaridagilarga, kichik yoshdagilarning kattalarga salom berishi odat tusiga aylangan. Muomalaning asosi bo'lgan salomlashish xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida o'z aksini topgan. “Gar saloming bo'lmasa, ikki yamlab bir

---

<sup>5</sup>Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-82-bet.



yutardim”,- deb yovuz kuchlar ertak va doston qahramonlariga yordam bergan, manmanlik bilan salom berishni unutganlar esa jazoga giriftor bo’lgan. “Odobingni salomingdan bilurlar” maqolida salom insonning fe’l-atvori, odobining ko’zgusi ekanligi ta’kidlangan. “Alpomish” dostonida chiltonlar Alpomishga shunday maslahat berishadi:

Xudoyim beribdi insonga kalom,  
Bemavrid ish qilib topmagin alam,  
Yaxshi ham, yomon ham shundan bilinar,  
Kim bo’lsa oldidan o’tma besalom.

Bittagina salomlashish va hol-ahvol so’rashish odobi va odati orqali xalqimizga xos bo’lgan insonni sevish va ardoqlash hissining ustunligini ko’rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, xalq pandnomasi farzandning tug’ilishidan boshlab oila, birinchi navbatda, ota-ona bajarishi lozim bo’lgan hayotiy va xalqchil odatlar, udumlar, rasm-rusumlar, an’analarga nihoyatda boy. Bolaning ilk bor sochini va tirnog’ini olish, tishi chiqishi, atak-chechak bo’lishi, birinchi so’zni aytishi, o’tirishga o’rganishi, birinchi qadam bosishi, kiyim kiya boshlashi, o’simliklar va hayvonot olami bilan birinchi tanishishi, tarbiyachi qo’liga berish, maktabga ilk qadam qo’yish bilan bog’liq ko’plab axloqiy tarbiya, xulq-odobga oid udumlar, odatlar, rasm-rusumlar shular jumlasidandir. Navro’z bayrami hozirgi kunga kelib, o’z sehr va tarovatini yo’qotmadi, balki xalqimiz orziqib kutadigan bayramga aylandi, bayram bilan bog’liq ko’plab urf-odatlarimiz yana qayta tiklandi. “...Yangilanish va ezgulik timsoli bo’lgan Navro’z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgan, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g’oyalardan bahramand bo’lib, ma’naviy kamol topganining yana bir tasdig’idir.”<sup>6</sup>

Demak, Navro’z bayramini nishonlash, u bilan bog’liq urf-odatlar, rasm-rusumlarni o’tkazish yoshlar tarbiyasida juda katta ahamiyatga ega. Zero, bu

---

<sup>6</sup>Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.-35-bet.

bayram nafaqat tabiatning qudrati va saxovatini, balki xalqimizning yuksak xususiyatlarini aks ettiradi.

Xalqimiz kuzgi tengkkunlikda hosil yig'ish yakuni, qishga tayyorgarlikning boshlanishi sifatida "Mehrjon" bayramini o'tkazgan. Hozirgi kunda bu bayram qayta tiklanib nishonlanmoqda.

Yoz oyida nishonlanadigan "Suv sayli" - "Angom bayrami" O'rta Osiyo iqlimi sharoitida suvga bo'lgan tabiiy ehtiyoj asosida shakllangan. Suvning qadriga yetish, uni isrof qilmaslik, e'zozlash kabi xislatlarni tarbiyalashda ushbu bayramning ahamiyati katta bo'lgan. Yoz oylarining oxiridan boshlab uzum sayli, qovun sayli, anor, anjir sayillari, turli-tuman tabiat va mehnat bayramlari nishonlangan.

"Sada" bayrami qadimda olov kashf etilgan kun deb nishonlangan. Islom dini kirib kelgach, bu bayram yo'qola borgan, lekin uning ba'zi elementlari hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Masalan, ba'zi viloyatlarda kelinni olov atrofida aylantirish udumi hozir ham bor.

Dehqonchilik bilan bog'liq juda ko'p marosimlar qatorida "Shoxmoylar" alohida quvonch va tantana bilan nishonlangan, bu kun dalaga qo'sh chiqarish kuni sifatida bayram qilingan. Bu bayram bilan bog'liq udumlar kishilarni hamjihatlikka, mehrli bo'lishga va mehnatsevarlikka undagan.

Bu urf-odatlar va marosimlarda yoshi kattalar ulug'langan, halqimiz kelajakka umid va ishonch bilan qarashni o'rganganlar.

Jo'rachilik va ulfatchilik asosida tashkil qilinadigan "gap" hozirgacha saqlanib kelayotgan urf-odatlardan biri. Unda turli tarbiyaviy mazmundagi suhbatlar uyushtirilgan, ashula va raqslar ijro etilgan, mehmonnavozlikning o'zbekona udumlariga rioya qilingan.

Diniy bayramlarimizdan Ro'za va Qurbon hayiti insonparvarlik xarakteriga ega bo'lgan bayramlar safiga kiradi. Bu bayramlarning kelib chiqishi, mohiyati haqida juda ko'p ma'lumotga egasiz, shu bois hayit bayramlari bilan bog'liq ba'zi bir urf-odat va udumlar haqida to'xtalmoqchimiz. Ro'za hayiti Ramazon oyining yakunida nishonlanadi. Ramazon oyining uchinchi kunidan boshlab eshikma-eshik

yurib “Yo ramazon” qo’shig’i ijro etiladi. Quyida shu qo’shiqdan namunalar keltiramiz:

Yo ramazon aytib keldik eshigingizga ,  
Qo’chqordek o’g’il bersin beshigingizga.

Yo ramazon, yo ramazon.

Sum-sum tilla, sum tilla suvga solsa botmasin,

Xudo bergan keng davlat tepkilasa ketmasin,

Yo ramazon, yo ramazon.

O’g’loningiz sher bo’lsin, qizginangiz oy bo’lsin,

Qadam bosgan joyida omad doim yor bo’lsin,

Yo ramazon, yo ramazon.

“Ramazon” qo’shig’ini aytuvchilar inson zotiga, uning oilasiga shu tariqa yaxshi niyat bildirganlar, uy egalari ko’ngildan chiqarib bergan pul yoki oziq-ovqat mahsulotlarini o’zaro teng bo’lib, mahalladagi bemorlar, muhtojlarga ham ulashganlar. Demak, “Ramazon” qo’shig’ini aytishdan maqsad odamlarga ezgu niyat bildirish, sog’lik, omonlik, to’kin-sochinlik va osoyishtalik tilash hamda kam ta’minlangan oilalarga yordam berishdan iborat bo’lgan.

Xalqimizning ajoyib o’yin-odatlaridan biri “Qorxat” yozish bo’lib, bu odat hozirgi kunda deyarli unutilgan. Bu o’yin-odat xalqimizning serhimmat, qo’li ochiq, saxiy, tanti xalq ekanligini namoyish etgan. Uning qoidasi va shartlari quyidagicha bo’lgan: “Avvalo qorxat birinchi qor yoqqan kuni jamoa bo’lib, she’riy shaklda yozilgan, bu xalqimizning shoirta’bligidan darak beradi. Qorxat yozish yig’inida shoirlar, baxshilar, zukko, hozirjavob va fozil kishilar ishtirok etishgan. Qorxat yozish kechasi she’rxonlik, kitobxonlik, baxshichilik, askiyabozlik, donishmandlar suhbatiga aylanib ketgan. Qorxatda uning shartlari bitilgan. Qorxat yozuvchining vakili xatni egasiga qorxatligini bildirmay topshirgan-u, qo’lga tushib qolmaslik uchun belgilangan masofagacha qochgan. Aks holda maktub jo’natgan taraf shartlarni bajarishi lozim bo’lgan. Qorxat

shartlarida noz-ne'matni dasturxonga to'kib, katta ziyofat berish aytilgan, bu ziyofat hamma uchun bayram tusini olgan. Uy egalari qorxat yozgan tomonni izzat-ikrom bilan kutib olishgan.”<sup>7</sup>

Qorxat, garchi hozirgi kunda unutilib borayotgan bo'lishiga qaramay, xalq bag'ining kengligi, o'zbek dasturxonining to'kinligi, zukko va sersahovat udumlarimizdan biri sifatida milliy urf-odatlarimizning ajoyib namunasi bo'lib qolaveradi.

M.Murodov o'zbek xalqining boy o'yin merosini quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganadi:<sup>8</sup>

1. Tabiiy – mavsumiy o'yinlar.
2. Hududiy va turli joylarga xos o'yinlar.
3. Turli yoshlarga xos o'yinlar.
4. Turli jinsdagilar o'yinlari.
5. Mashg'ulot, mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar.
6. Voqeaband o'yinlar.
7. Harakatli o'yinlar.
8. Turli vositali o'yinlar.
9. Hayvonlar ishtirokida o'tadigan o'yinlar.

Demak, xalq o'yinlari bolalarda ijodiy faollik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblangan. Lekin, afsuski, yuqoridagi xalq o'yinlarining ko'pchiligi unutilib borayotganligi, toza havoda jismonan chiniqib o'ynaladigan o'yinlar o'rnini kompyuter o'yinlari egallayotganligi achinarli hol, albatta. Biz ajoyib xalq o'yinlari yordamida barkamol avlod tarbiyalanib, uning barcha ijobiy sifatlari shakllanishini unutmasligimiz lozim.

---

<sup>7</sup> M.Sattorov.O'zbek udumlari. T.: “Fan”, 1993. 140-6.(qisqartirib olingan.)

<sup>8</sup> Murodov. Etnomadaniyat. T. Adolat. 2003. 76-78-b.

## **2. Oila tarbiyasida urf-odatlar, an'analardan foydalanish**

An'analar juda murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, ular ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi. Har bir xalqning ilo'or va qoloq an'analari bor. Hap bir ao'ananing ilo'orligi va qoloqligi, awalo jamiyat hayotida uning qanday rol o'ynashiga boo'liq. Ilo'or an'analar doimo xalq manfaatlar uchun xizmat qilgan va qilib kelmoqda. Ular ma'lum tarixiy sharoitlarda vujudga kelib, sinflar, millatlar va umuman jamiyatning ma'lum ehtiyojlarini qondirgan. Eskirib qolgan unsur yaxshi sharoitlarda yuzaga kelgan, mazmuni jihatidan yangi bo'lgan unsurlarga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Shu sababli ham tarixiy taraqqiyot davomida xalq turmushining yangi sharoiti talablariga javob beradigan ba'zi an'analar saqlanib qoladi va xalq ommasi manfaatlariga uzoq vaqt xizmat qiladi, ayrimlari esa o'z umrini o'tab, o'rnini jamiyat taraqqiyoti yuzaga keltirgan yangi an'analarga bo'shatib beradi.

Taraqqiyot davomida kishilarning, yangi avlodi o'zining ma'lum an'analarga amal qilib, ularga o'z hissasini qo'shadi, ularni o'zgartiradi, yangi tarixiy sharoitda yuzaga kelgan yangi fikr va tuyo'ular bilan boyitadi. "An'ana" tushunchasi "urf-odat" tushunchasi bilan mustahkam boo'langan. An'ana tushunchasi ijtimoiy munosabatlarning, ijtimoiy ongning barcha shakllariga taalluqli bo'lib, hajm va mazmun jihatidan urf-odat tushunchasidan kengroqdir. Ibtidoiy jamiyatning ilk davrida urf-odatlar shakllangan bo'lib, bu davrda hali hech qanday doimiy tasavvurlar vujudga kelmagan edi. Urf-odatlar jamiyatning dinsiz davrida yuzaga kelgan ijtimoiy hodisadir. Ular kishilarning ijtimoiy mohiyati zaminida vujudga kelib, jamiyat rivojlanishiga, kishilar ongining o'sishiga faol ta'sir ko'rsatgan. Chunki kishilar an'ana va urf-odatlar orqali o'zlarining mehnat jarayoni, ijtimoiy xatti-harakatlarini tabiiy-estetik shaklda ifodalaganlar. Bunday odatlarga ko'pchilik qiziqish bilan qaragan, ular faol mehnat malakalarining o'sishiga jiddiy ta'sir etgan, kishilarda kuchli ijobiy tuyo'ular uyo'tgan. Urf-odatlar orqali shaxs jamoa bilan chambarchas boo'langan, jamoaning ijtimoiy, axloqiy normalarini, ideallarini anglagan va qabul qilgan. Demak, an'ana, urf-odatlar insonning ham hissiyo-tiga, ham tafakkuriga kuchli ta'sir eruvchi hodisadir. Ular insonda turli kechinma va kayfiyatlar uyo'tadi.

Inson turmushidagi urf-odatlar ma'lum darajada odamning o'z -o'zini, ijtimoiy burchini anglashga, shaxs sifatida shakllanishiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Ular

odamlarga hayot kechirish, kurashish uchun ijtimoiy yo`l-yo`riqlar beradi. Bu xususiyat uzoq o`tmishdagi urf-odatlardan tortib, bizning davrimizdagi urf-odatlarga ham xosdir. Chunki fan, adabiyot, san'at sohasida urf-odatlar amal qilmaydi, mehnat an'analari ham urf-odat sanalmaydi. Urf-odatlar oilaviy turmush munosabatlarining, axloqiy normalarning mayda tafsilotlarida namoyon bo`ladi. Xotin -qizlar bilan munosabatda bo`lish tartiblari, ular bilan salomlashish qoidalari, keksalarga ko`rsatiladigan hurmat-ehtirom, mehmondorlik va mezbonlik qoidalari, dafn marosimlariga borish, undan qaytish tartiblari va boshqalar urf-odat hisoblanadi.

An'analardan farqli o`laroq urf-odatlar kishilarning ishlab chiqarishdan tashqari faoliyatlarini o`z ichiga oladi. Shuning uchun urf-odatlar nisbatan barqaror ijtimoiy munosabatlar yio`indisi hisoblanib, ko`pincha jamoatchilik fikriga tayanadi. Xulosa qilib aytganda, kishilarning mustahkam qaror topgan urf-odatlari didlari, hulq-atvor qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarning norma va prinsiplari yio`indisidir.

Maishiy hayot va oilaviy turmush urf-odat bilan chambarchas boo`langan hodisadir. Ular kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan va rivojlanib boradigan obyektiv hodisa bo`lib, jamiyat tarixining ilk davrida vujudga kelgan. Har bir oilaning ichki tartibi, boshqa oilalardan ajralib turadigan o`ziga xos xususiyatlari bo`ladi, ya'ni har bir oilada dam olish, mehnatni uyushtirish, bayramlarni nishonlash, o`zaro munosabatlarga kirishda o`ziga xoslik bor.

**An'analar va urf-odatlar** yoshlarni yuksak ideallar ruhida tarbiyalashda ta'sirchan vositadir. Zero, an'ana va urf-odatlarni shakllantirish, hayotga tadbiq etish murakkab jarayon bo`lib, buning uchun uzoq vaqt kurash olib borish, ijtimoiy va ma'naviy yutuqlarimizni yanada rivojlantirish, umummilliy an'analarni takomillashtirish talab etiladi.

Yangi an'analar va urf-odatlar turmushimizni ma'naviy jihatdan to`ldiradi, turmush tarzining ijtimoiy-axloqiy, estetik ideallarini, xulq-atvor namunasini, kishilarning mehnatga bo`lgan munosabatini mustahkamlaydi, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, o`oyalarini aks ettiradi.

### **3. O'zbek xalqining mehmondorchiligi, turmush kechirish tartib - qoidalarining tabiyada aks etishi**

Ma'lumki, o'zbek xalqining aqliy-ruhiy qiyofasi, ya'ni milliy mentaliteti o'ziga xos tarixiy, etnik tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar negizida shakllangan. Xarakterdagi milliy o'ziga xoslikning negizini esa shu xalqning hayotiy tajribalari, urf-odatlar, marosim va ma'rakalarining yaxlit tizimi tashkil etadi. Shu o'rinda o'zbek xalqi budda, zardushtiylik, islom, sotsializm kabi to'rtta katta diniy-mafkuraviy bosqichni o'z boshidan kechirganligini ham aytib o'tishimiz joiz. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz. Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan iboralarni olaylik. ...Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ongu-shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasidir".<sup>9</sup>

Darhaqiqat, o'zbek milliy mentalitetiga xos jihatlardan biri jamiyat hayoti, insonlar turmush tarzining ko'proq an'ana, urf-odatlar orqali boshqarilishidir. "Biz buni ayniqsa xalqimizning to'y-tantanalarga o'ta o'chligida, yillar davomida yig'ib-terib elga tarqatishdan zavq-shavq olishida, aza va yo'qlov marosimlarini uyushgan holda o'tkazishda, bola tug'ilishidan tortib to motamgacha bo'lgan barcha marosim va urf-odatlarimizda keng jamoatchilik va mahalla ahlining doimo bosh-qosh bo'lishi kabi udumlarda kuzatamiz".<sup>10</sup>

O'zbek xalqining milliy fazilatlaridan biri mehmondorchilikdir. Har bir mahallada dasturxon bezatuvchi uquvli, ozoda va pokiza tabiatli kishi bo'lgan. O'zbek dasturxonining o'ziga xos xususiyati shundaki, issiq ovqatlardan tashqari

---

<sup>9</sup> Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma'naviyat, 2008. 8-ber.

<sup>10</sup> Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya. — T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007, 129-bet

hamma noz-ne'matlar dasturxonga birdaniga qo'yiladi. (Yevropa dasturxonidan shunisi bilan farqlanadi.) Bunday dasturxon bezatishdan maqsad mehmonlar taom va noz-ne'matlarning xiliga qarab tegishli ishtaha saqlay olishlari va ovqatlanish gigienasiga imkon yaratishdir. Milliy odatga binoan dasturxon to'riga yoshi ulug'lar o'tiradi va duo-fotiha o'qiladi. Unda Allohga shukronalar aytiladi, o'tganlar ruhi yodga olinadi, el-yurt xotirjamligi, qut-baraka, yoshlar kamoloti, keksalarga mustahkam imon tilagi bildiriladi. So'ngra mehmon va mezbbonlar bir-biridan hol-ahvol so'rashib bo'lgach, avval non ushatiladi, choy quyiladi, keyin issiq ovqatlar tortiladi. Shu tariqa mehmon izzat-ikrom bilan kutib olinadi, va "Xush ko'rdik", "Tashrifingizdan boshimiz osmonga yetdi", "Tez-tez mehmonimiz bo'ling", "Kelganingiz uchun rahmat" kabi tavozeli jumlar bilan kuzatiladi. Agar dasturxon atrofidagi biror kishi safarga otlansa: "Oy borib, omon kelishi, yo'lda balo-qazoga uchramasligi" tilanadi. Yangi oila qurganlar bo'lsa, "Qo'shgani bilan qo'sha qarishi, uvali-juvali bo'lishi, farzandining rohatini ko'rishi" so'raladi.

Madaniyatimizning ko'hna manbalarida mehmondorchilik xalqimizning odamiylik, saxovat, madaniy va ma'naviy aloqasi, kengfe'llik, shirinsuxanlik kabi xislatlar mezoni sifatida juda qadrlanadi. O'zbek xalq maqollarida mehmondo'stlik, mehmondorchilik odobi masalalari pand-nasihat tarzida o'z aksini topgan:

- Mehmon-aziz, mezbbon-laziz.
- Mehmon – atoyi xudo.
- Kelmoq ixtiyor bilan, ketmoq ijozat bilan.
- Mehmonning oldida mushugingni pisht dema.
- Mehmon kellar eshikdan, rizqi kellar teshikdan.
- Shirmoy noningni berma, shirin so'zingni ber.
- Mehmon ko'rki – dasturxon.
- Mehmon otangdek ulug' va h.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlasak, qadimdan Sharqda mehmonlar uchun musofirxonalar, karvonsaroylar, rabotlar qurilganini bilib olamiz. Hozirgi kunda ham millatimizga xos mehmondo'stlik namunalarini ko'ramiz, ya'ni har bir o'zbek



oilasi istiqomat qiladigan uyning alohida bir xonasi mehmonlar uchun ajratib qo'yiladi va shunga yarasha jihozlanadi.

Xalq og'zaki ijodida o'zbek xalqiga xos bo'lgan olijanoblik, iltifotlilik, saxovatlilik fazilatlarini tarannum etuvchi namunalar juda ham ko'p. Shulardan biri **“Olijanoblik”** rivoyatida hikoya qilinishicha,<sup>11</sup> Sulton Xusayn bir qancha olimu shuarolarga ziyofat berib, suhbatdan qulfi-dili ochilib o'tirar ekan. Xizmatkorlar nafis kosalarda suyuq taomlarni tashiy boshlabdilar. Shunda xizmatkorlardan biri ostonada nimagadir qoqindi-yu, qo'lidagi mastavali idish to'g'ri Xusayn Boyqaroning quchog'iga tushib to'kilibdi.

Sultonning zarrin liboslari mastavadan shalabbo bo'lib ketibdi.

Anjumandagilarning hammasi beixtiyor “Oh!” deb yuboribdilar. “Nima bo'larkin endi?” – degan savol bilan Sultonga qarashibdi. Lekin Boyqaro kayfiyatidagi samimiyat aslo yo'qolmabdi. U jilmayganicha sochiq bilan liboslarini artib, yiqilgan xizmatkorga: “Bo'tam, tur o'rningdan, ko'zingga qarab yursang bo'lardi. Bora qol, kiyimlaringni almashtirib ol, - debdi mehribonlik bilan. Sultondan bunday olijanoblikni kutmagan kishilar hayrat bilan Xusaynga boqishibdi. Shunda mehmonlardan biri o'z hissiyotini yashirolmay: “Ey, saxovatli Xusayn! Shu lahzadagi olijanobligingiz hammamizni maftun etdi. Boshqa sulton bo'lganida gunohkorni o'limga buyurishi hech gap emas edi”, - debdi.

- Tavba! - debdi Xusayn Boyqaro yengil jilmayib. - Ul xizmatkorimiz falokat bosib yiqilib tushganidayoq hijolatdan o'lib bo'lganku! Nechuk endi biz o'lgan odamni yana o'limga buyurar ekanmiz.

Mehmonlar Xusaynning olijanobligi-yu, donishmandligiga tahsinlar o'qibdi. Zero, “Gunohni yashirgan kishilar marddir, zulmkor johillik bedavo darddir,” – deb xulosa qilishibdi.

Dono xalqimizning ta'kidlashicha, quyidagi sakkiz xil kishining suhbatini g'animat bilmoq kerak: birinchisi - yaxshilikni biladigan, haq-huquqni ado qiladigan; ikkinchisi – mehru-muhabbati zamonaning har qanday hodisalari ostida

---

<sup>11</sup>A.Karimov. Bir gapim bor uch tillo. – T.: Adolat, 1992, 36-b.

ham o'zgarmaydigan; uchinchi – ulug' kishilarni tarbiya qilgan arboblarga izzat va hurmat ko'rsatadigan; to'rtinchi – fisqu-fujurdan, yolg'ondan, takabburlikdan parhez qiladigan; beshinchi – g'azab paytida o'zini qo'lga oladigan; oltinchi – saxovat bayrog'ini ko'tarib, bechoralar hojatini chiqaradigan; yettinchi – sharmu-hayoni o'ziga qurol qilib olib, har qanday holatda ham odob chegarasidan tashqariga chiqmaydigan; sakkizinchi – olim va dono kishilar bilan do'stlik aloqalarini o'rnatib, fisqu-fujur ahlidan qochadigan kishidir.

Suhbatidan qochish lozim bo'lgan sakkiz kishidan birinchi – tuz xaqini bilmaydigan va tuzlig'ingga tupuradigan, ikkinchi – besabab g'azablanadigan va g'azabini bosolmaydigan; uchinchi – uzoq umri bilan mag'rurlanadigan, o'zini oddiy axloq qonun-qoidalaridan ozod deb hisoblab, ko'ngliga yoqadigan ishlarni qilaveradigan; to'rtinchi – har bir ishni makru-hiyla bilan ado qiladigan va bu yo'lni to'g'ri deb tushunadigan; beshinchi – yolg'on va xiyonatni shior qilib olib, rostlik va vijdonlilikni tan olmaydigan; oltinchi – nafs ko'yiga tushib, hoyu-havasni maqsad qiblasini deb tushunadigan; yettinchi – besharm, behayo bo'lib, sho'rlik va beodoblik bilan kun o'tkazadigan; sakkizinchi – hech qanday sababsiz yaxshi odamlar haqida yomon o'ylaydigan va hech qanday hujjatsiz ilmu donish arboblari tuhmato'shini otadigan kishidir. (Donolar bisotidan.)

**Go'zal urf-odatlarimiz umrboqiydir.** Ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi asrlar davomida o'ziga xos xilma-xil urf-odatlar, marosimlarni yaratdi. Ular doimiy takrorlanishi va xalqning ularga amal qilib kelishi natijasida umrboqiydir. Turmushga, zamonga qarab ularning ayrimlari unutiladi. Zamonga qarab, yangilari paydo bo'ladi, eng xalqchillari esa avloddan-avlodga o'tib keladi.

Xalqimiz turmushida "To'y" nomi bilan yuritiladigan marosimlar juda ko'p. Bunday marosimlarning chiroyli o'tishida ayollarning hissasi katta bo'lgani bois xalqimizning eng qimmatli urf-odatlarini avloddan-avlodga yetkazishda ham ularning o'rni beqiyosdir,

Farzand voyaga yetib borar ekan, ona unga atab bisot sandig'ini ochadi. Nikoh to'yi kelajak oilaning poydevoriga asos soladi, shuning uchun ham barcha tadbirlarga yoshu-qari, erkagu-ayol birdek ishtiyoq bilan kirishadilar.

Garchi to'y tantanalari bir kunda, bir necha soatda o'tsa ham, ungacha tayyorgarlik ko'rish, to'ydan keyingi rasm-rusumlarini hisobga olganda bir necha kunga cho'ziladi. Nikoh to'yi marosimi o'zbeklarda qadimdari sovchilikdan boslangan va hozir ham bu rusumga rioya qilib kelinadi.

**Sovchilik va sovchi odobi.** Xorijlik mehmon bilan suhbat.

**Mehmon:** sizlarda uylanish yigit va qizning muhabbati asosida emas, qandaydir sovchilar vositasida amalga oshirilar ekan. Shu rostmi?

**Javob:** rostlikka rost, lekin sovchilik muhabbatni inkor qilmaydi, aksincha muhabbatni maqsadga erishtiradi yoki yo'q muhabbatni borga aylantiradi, muhabbat yaratadi. Biz unga sovchilikning mohiyatini tushuntirib berdik. Ikki yosh bir-biriga sevgi izhor qilib, turmush qurmoqchi bo'ldi deylik. Shu yoshda ularda hali hayot tajribalari kam, hissiyot aqldan ustunlik qiladi. Ota-ona, umuman kattalar bilan maslahatlashadilar, qiz tarafining tag-taxtini, ota-onasini, uy joyini, qizning xulq-atvorini sovchilar vositasida so'rab, surishtiradilar. Ayni vaqtda qiz taraf ham shunday ish tutadi va bir fikrga kelinadi yoki yigit o'ziga munosib qiz topa olmadi, lekin uylanishi kerak. Evropada bunday holda "Tanishuv klublari", reklamalar qo'l keladi, bizda esa sovchilik shaklida ish bitkaziladi. Sovchilar vositasida uchrashgan yigit-qiz ma'lum vaqt bir-birlarini sinaydilar, ular o'rtasida muhabbat rishtalari paydo bo'lsa, unashtirilib to'y bo'ladi.

Xorijlik mehmon o'ylab qoladi.

Evropaga nisbatan sizlarda oilada ajralishning kamligi ham balki shundandir, degan xulosaga keldim dedi u.

Shaharlarda yigitning onasi amma yoki xolasi bilan mo'ljalidagi qiz xonadoniga tashrif buyurib "mehmonga keldik" bahoniasi bilan qizni ko'radilar. Ayni paytda uy-joy, hovlining tozaligi, saranjomligi dasturxon qanday bezatilishi uy, egalarining mehmon do'stligiga razm soladilar.

Qizning onasi bilan suhbatlashib "Onasini ko'ru, qizini ol" maqoliga rioya qiladilar. Sharqona odobga ko'ra, yigitning onasi o'z o'g'li haqida gapirishi, maqtashi odobdan sanalmaydi. Yanabir nozik jihati, sovchilar ham, qiz tomon ham bir-birining sha'niga tegadigan so'z qilmaydi, deylik qiz tomonga kuyov tomon

ma'qul bo'lmadi. Shunda ham ochiqdan ochiq yo'q deyilmaydi. "Qizimiz hali yosh", "o'qishi bitsin" kabi so'zlar aytiladi.

Sovchilar ikkirichi yoki uchinchi borishida ma'qul kelsa, rozilik beriladi, sovchilar keltirgan dasturxon ochilib noni sindiriladi, so'ng "oq kiydi" marosimi o'tkaziladi, bunda rozilik belgisi qilib oqlik beriladi. Shu marosimda ko'pincha fotiha to'yi kuni, taxminan to'y kuni belgilanadi. Fotiha to'yi bo'lajak kelin uyida o'tkaziladi. Kuyov tomon dasturxonlar olib borishadi, yaxshilab mehmon qilingach esa, qaytishlarida esa sarpoberiladi. To'y oldi marosimlari: bo'lajak kelin sarpolarini tiktirish bilan band bo'lganda onasi "paxta solar" qiladi. Ya'ni opa-singillari qo'shni ayollar bilan ko'rpa-ko'rpachalar bichilib, paxta solib qaviladi.

"Uy ko'rar" kelinning yaqinlari kuyovnikiga borib deraza eshik va uy ko'rib kelib, pardalar tikishadi. Sovet davrida nikoh o'qitish man etilgani uchun bu marosim xufya ijro etilgan. Endilikda davlat idoralarida qayd etilgach, shu yaqin oradagi masjidda yoki qizning uyida o'qitiladigan bo'ldi. Imom ikki yoshga er-xotinlik burchi va huquqlarini oilaning muqaddasligini tushuntirgach, kuyov va kelinning roziligini olgach "xutbai nikoh" o'qiydi. To'y kuni: qadimgi o'zbekchilik udumiga ko'ra nikoh to'yi tantanalari kuyovnikida o'tkaziladi. To'y oqshomi kuyov jo'ralari bilan o'yin kulgu bilan kelinnikiga keladi va u yerda to'y tantanalari davom etadi, ziyofat oxirida kuyovga sarpolar chiqadi. So'ngra kelin uchun hayajonli damlar boshlanadi. Uning yaqinlari yig'ilishib uzatib borishga tayyorlanadilar. Kelinga oq libosini kiydirib otasi, onasi, buvasi, tog'a amaki kabi qarindoshlari bilan xayrlashgani olib chiqishadi. Bu ham 'ko'pchilik ayollarning qalbini hayajonga solib, ko'ziga yosh chiqaradigan marosim.

**Yor — yor va kelin salom.** Xotin qizlarning qiz uzatish bahona o'zlari to'qigan yor-yorlarida qiz bolaning qismati, uning baxtini tilash, epli - sepliligini ta'kidlash, qizlarning taqdirga tan berishi, ko'nikishi kerakligi haqidagi momolar o'giti ifodalangan quyidagi turli viloyat va tumanlardan yozib olingan "Yor-yor"lardan namunalar keltiramiz:

*Hay-hay o'lan, jon o'lan, baxting bo'lsin yor-yor,*

*Payg'amharning qizidek taxting bo'lsin yor-yor,*

*Payg'amharning qizini kim ko'rgan bor yor-yor,  
Ota-ona uyiga kim to'ygan bor yor-yor.*

*Zargar qilgan zanjirni uzib bo'lmas yor-yor,  
Xudo qilgan taqdirni buzib bo'lmas yor-yor,  
Hay-hay o'lan, jon o'lan, mis panjara yor-yor,*

Bugungi kundagi turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer yuzidagi har bir millat faqat uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo'lgan bunday qadriyat va an'analar bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar, avlodlar sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlar deyiladi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi.

Xalqimiz juda qadim paytlardan boshlaboq ko'chmanchilikdan o'troq hayot kechirishga o'tgan, shunday hayot tarziga o'rgangan. Odamlar o'zi o'rnashib qolgan yerni, uning atrofidagi suv manbalarini qadrlashni, asrashni odat qilganlar. Chunki mana shu yer va suv yordamida olinadigan hosil insonlarning rizqi, tirikchiligina muhim manbayi hisoblangan. Bunday o'troq hayot tarzi odamlarni jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib yashashiga, mehnat qilishi mehnat mahsullarini o'zaro ayirboshlash orqali savdo munosabatlari kirishishiga olib kelgan. Shu tariqa qishloq xo'jaligi hamda shahar madaniyati yuksala borgan. Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz va Qo'qon singari o'nlab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o'lchanishi ham bejiz emas.

Demoqchimizki, xalqimiz o'zi tug'ilib o'sgan yer-zaminga qattiq bog'langan, uni e'zozlashni bolaligidan o'rganib, his qilib o'sadigan millat sanaladi. Demak, xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini - oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

O'zbek xalqi to'y-tomoshaga boy xalq hisoblanadi. O'zbek to'y marosimlarining bir necha turi mavjudki, ularning har biri alohida bir kitob bo'lishga arzigulik. Oilada farzand tug'ilishi bilan to'y marosimlari boshlanib ketadi: soch to'yi, chilla to'yi, beshik to'yi, sunnat to'yi, muchal to'yi, nikoh to'yi, yosh to'yi (yubiley), kumush to'yi, oltin to'yi va hokazo... Ular orasida eng asosiysi nikoh to'yi bo'lib, bu to'y milliy urf-odatlarimiz va turli rasm-rusumlarga boyligi bilan ajralib turadi. Masalan, o'g'il uylantirish yoki qiz chiqarishda avvalo, bo'lajak quda tomon so'rab-surishtiriladi. Qiz-yigitning xarakter-xususiyatlari, nasl-nasabi, ota-onasi, kasb-kori va boshqa jihatlari aniqlanadi. Bundan asosiy maqsad qurilajak oilaning har tomonlama mustahkamligini ta'minlashdan iborat. Ana shundan keyin har ikki tomon rozi-rizoligi bilan to'yga tayyorgarlik

boshlanadi. To‘ygacha ham xalqimizning bir qancha milliy urf-odatlarini, marosimlari borki, “qarindosh chaqirdi”, “uy ko‘rdi”, “fotiha to‘yi”, “qatlama keldi” kabi marosimlarisiz o‘zbek to‘yini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu kabi an‘analari millatimizning nafaqat qadimiyligini, balki mehmondo‘stligi va odamshavandaligini ham o‘zida aks ettiradi. Har bir odatimizning o‘ziga xos va o‘zgacha gashti bor. Ular bilan o‘zbek to‘ylari yanayam fayzli va tarovatli bo‘ladi. To‘y jarayonida qilinadigan bir qancha milliy rasm-rusumlarimizning har biri o‘zgacha ma‘no-mazmunga ega, har birining o‘zgacha xosiyati bor. Masalan, kelin-kuyov uyga kirayotganlarida hayot yo‘llari pok va ravon bo‘lsin deya oyoq ostlariga yangi poyondoz to‘shaladi. Keyin kuyov jo‘ralar tomonidan poyondoz bo‘lib olinadi. Bu kuyov jo‘ralarga ham kuyovlik baxti nasib qilsin, degan ma‘noni anglatadi. Chimildiqqa kirishda esa kelin-kuyov boshiga non ushlab kiritiladi. Bu rizq-ro‘z sifatida yosh oilaning rizqi butun, noni halol, hayotlari to‘kis bo‘lishiga ishoradir.

Nikoh to‘yi marosimining bu kabi urf-odatlarini, rasm-rusumlari, an‘analari ta‘rifini uzoq davom ettirish mumkin. Bu to‘yning yana bir muhim jihati borki, unga alohida to‘xtalib o‘tmaslikning iloji yo‘q. U ham bo‘lsa to‘y marosim qo‘shiqlaridir. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining boy namunasi sifatida to‘y marosim qo‘shiqlari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, nikoh to‘yida aytiladigan marosim qo‘shiqlari ko‘pligi, xilma-xilligi, teran mazmundorligi va hayotiyiligi va dilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Bu o‘lmas qo‘shiqlarning har biri alohida ta‘rif-tahsinga sazovor. Birgina yor-yor va o‘lanlarni olaylik. Hech kim bu xonishlarni shunchaki eshitmaydi, balki ular ohangida sel bo‘lib, yuraklari orziqib, ekin tuyg‘ulari jo‘sh urib, qalb torlari junbushga kelib tinglaydi. Yor-yor sadolari ostida kelin yangi ostonaga qadam qo‘yadi. Kayvoni momolar tomonidan maromiga yetkazib kuyulanadigan o‘lan, yor-yor, kelin salom, kelin o‘tirsin, xush kelibsiz, raxt urdi kabi folklor namunalaridan maqsad yangi qurilayotgan oilaga baxt-saodat, tinchlik-osoyishtalik va serfarzandlilik tilashdan iboratdir. Xalq og‘zaki ijodiga mansub milliy marosim qo‘shiqlarini to‘plash va o‘rganish bo‘yicha qator ishlar qilingan. Xususan, olimi Muzayyana Alaviyaning “O‘zbek xalq qo‘shiqlari”

monografiyasi nikoh marosimi va uning folklorini o'rganishdagi dastlabki qadam sifatida baholandi. Xalq qo'shiqlari, ularning tarixiy ildizlari, asosiy xususiyatlari, turlari, xalq ma'naviy hayotida tutgan o'rnini o'rganishga bag'ishlangan mazkur kitobda o'lan, lapar, yor-yor, bayt-g'azal, xush kelibsiz, to'y muborak kabi to'y marosim qo'shiqlari tahlil qilinadi.

Qadimdan urf bo'lib kelgan azaliy an'ana va qadriyatlarimizni, milliy marosim qo'shiqlarimizni to'y marosimlarida o'rni bilan ijro qilish ularning boqiyiligini, abadiyligini ta'minlaydi, yosh avlod qalbida ularga nisbatan mehr va qiziqish hissini uyg'otadi. Xalqimizning milliy qadriyatlarini doimo e'zozlab, qadrlab, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish har birimizning burchimizdir. Zero, milliy qadriyat va an'analar millat iftixori, g'ururi hisoblanadi. Ammo bugungi kunda ko'plab milliy urf-odatlarimiz unutilib borilayapti, ularga nisbatan bepisandlik bilan qaralyapti. Albatta, bunday beparvolikning xosiyati yaxshi emas. Chunki har bir qadriyatimiz zamirida o'ziga xos ma'no-mazmun bor. Milliy ma'naviyatimiz shakllanishida, ma'naviy ongimiz yuksalishida milliy odat va an'analarimizning o'rni beqiyos. Shunday ekan, ularni o'rganish va amalda qo'llash orqali ham ma'naviyatimizni yuksaltirishimiz va milliy qadriyatlarimiz umrboqiyiligiga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.



## **Xulosa**

Tarbiyaning natijasi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirish va rahbarlik, shuningdek, o'quvchi shaxsining o'zi tomonidan faollik ko'rsatilishini taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi rol o'ynaydi. Chunki u ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari mohiyatini tushunadi, maqsad yo'lida amalga oshiriladigan vazifalar tizimidan yaxshi xabardor, tarbiya shakl, metod va vositalarini asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiya jarayoniga tatbiq etadi.

Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda, ilmiy tahlil qilish bilan bir qatorda bolaga milliy urf-odatlar va an'alarimizning qay daraja beqiyos ma'naviy meros ekanligini ongiga singdirishimiz zarur.

Bola o'sib va rivojlanib borgan sari tarbiya vazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabahalashib boradi.

Har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash unga izchil ravishda aqliy, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, ekologik, iqtisodiy hamda huquqiy tarbiya berish, o'quvchilarning ongi, xulq-atvori va faoliyatining birligi, shuningdek, tarbiya jarayonini tashkil etishning yakka, guruhli va ommaviy shakllarini qo'shib olib borilishini tahminlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirish va bu tizim g'oyalari amal qilishni talab etadi.

Ijtimoiy tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish, uning atrof-tevarak, jamiyat, odamlar hamda o'ziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirish va uni kengaytirishga qaratilgan. Shaxs ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi qanchalik keng, xilma-xil va chuqur bo'lsa, uning ma'naviy dunyosi shunchalik boy bo'ladi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan e'tiboran xalqimizning xotirasini tiklash, qadimgi urf-odat va qadriyatlarini e'zozlash, muqaddas qadamjolarini asl holiga qaytarish yuzasidan chinakam tarixiy ahamiyatga molik ishlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu keng ko'lamli jarayon birgina o'zbek millatining tili,

dini va qadriyatlarini tiklash, rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning qadriyatlariga yuksak hurmat ko'rsatish bilan uzviy tarzda olib borilmoqda. Bu esa O'zbekistonni o'zining muqaddas Vatani deb barcha fuqarolarimiz orasidagi o'zaro hurmat, birodarlik, bag'ri kenglik fazilatlarining namoyon bo'lishida, Yurtboshimizning «Shu aziz Vatan barchamizniki» degan ezgu g'oyasi hayotga izchil tatbiq qilinishi muhim ro'l o'ynamoqda.

O'zbek xalqi azaldan milliy an'ana va qadriyatlarga, urf-odatlarga boy bo'lgan qadimiy xalq. Bu xalqning nafaqat biror-bir marosimi, balki butun umri, har bir kuni ma'lum qadriyatlar, milliylik nafasi ufurib turuvchi harakatlar asnosida kechadi. Bu xalq har bir qadriyat va an'analarini ulug'lovchi buyuk xalqdir. Aslida uning buyukligi ham mana shundan bo'lsa kerak. Zero, har bir millat milliy qadriyatlarini, milliyligini va o'ziga xosligini ko'z-ko'z qilish orqali o'zligini, milliy g'ururini namoyon qiladi. O'zlikni anglash milliylikdan boshlanadi. Milliy urf-odatlarga sodiqlik va ularga amal qilish har bir insonning milliy g'ururidan darak beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. o'zbekiston: o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. - T., "O'zbekiston", 1992.
2. Karimov I.A. o'zbekiston - kelajagi buyuk davlat. - T., "o'zbekiston", 1992.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - T., "o'zbekiston", 1995/
4. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma'naviyat, 2008. — 176 b
5. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T. O'zbekiston, 1994, 113-b
6. Karimov A. Bir gapim bor uch tillo. — T.: Adolat, 1992, 36-6
7. Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya. — T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007, 129-bet
8. Odob-axloqqa oid hadis namunolari. -T., "Fan", 1970.
9. Boldirev. N.X. Sinf rahbari, - T., "o'qituvchi", 1975.
10. Kaykovus. "Qobusnoma". - T., "o'qituvchi". 1986.
11. Bo'riyev O.. Oila va yangi an'analar. - T., "o'qituvchi", 1988.
12. Oila etikasi va psixologiyasi (T.Maqsudov tahriri ostida). -T., "o'qituvchi", 1991.
13. Javliyev T. An'analar - hayot saboo'i. - T., "o'zbekiston", 1992.
14. Avloniy A. Turkiy Guliston yohud axloq. - T., "o'Qituvchi", 1992.
15. Uzoqov X., E.G'oziev, A.Tojiev. Oila etikasi va psixologiyasi. - T., "o'qituvchi", 1992.
16. Yo'ldoshev J., S.Xasanov. "Avesto"da axloqiy-ta'limiy qarashlar. - T., "o'qituvchi", 1992.
17. Mimomova. Farzand nihol, ota-ona -boo'bon. - T., "o'qituvchi", 1993.
18. Jo'rabekov I. Yangi o'zbekiston - yangi qadamlar. - T., "o'zbekiston", 1994.
19. Jo'raev A J. Tarbiyaviy darslarni o'tish. -T., "o'qituvchi", 1994.
20. Munavvarov A.K.. Oila pedagogikasi. -T., "o'qituvchi", 1994.
21. Mahkamov U.. Axloq-odob saboqlari. - T., "Fan", 1994.
22. Murodov. Etnomadaniyat. T. Adolat. 2003. 76-78-b.
23. Sattorov M.. O'zbek udumlari. T.: "Fan", 1993. 140-6. (qisqartirib olingan.)

- 24.Xaydarov M. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan foydalanish. - T., "Yozuvchi", 1995.
- 25.To`raeva C. Odoynoma. - T., "o`qituvchi", 1995.
- 26.Yo`ldoshev J.. TaTimimiz istiqloli yo`lida. -T., "Sharq", 1996.
- 27.Qo`ziev Z.. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. - T., 1997.
- 28.Imomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi.-T., 1999.
- 29.Yo`ldoshev J.. o`quvchi ma'naviyatini shakllantirish. - T., «Sharq», 2000.
- 30.Mavlonova R., o`To`raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika. -T., "o`qituvchi", 2002.